

UO‘K: 140.8:172.3:297

**NAQSHBANDIYA TARIQATIDA DINIY BAG‘RIKENGLIK VA
MILLATLARARO HAMJIHATLIK MASALALARI**

Ahmad Muhammadiyevich JO‘RAYEV

dotsent

Falsafa fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Vatan universiti

Toshkent, O‘zbekiston

ORCID - 0009-0004-7341-0876

juraev.1982@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada Naqshbandiya tariqatining diniy bag‘rikenglik va millatlararo hamjihatlikni ta’minlashdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Uning insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va ijtimoiy hamkorlikka asoslangan tamoyillari yoritigan. Bahouddin Naqshband va tariqat namoyandalarining qarashlari asosida turli din va millat vakillari o‘rtasidagi totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi g‘oyalar ochib berilgan. Tadqiqotda Naqshbandiya tariqatining tarixiy tajribasi hamda uning zamonaviy ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatlarda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

Tayanch so‘zlar: Naqshbandiya, tasavvuf, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, Bahouddin Naqshband, ma’naviyat, insonparvarlik, hamjihatlik.

**ВОПРОСЫ РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ И
МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В ТАРИКАТЕ НАКШБАНДИЯ**

Ахмад Мухаммадиевич ДЖУРАЕВ

Доцент

Доктор философии по (PhD) философским наукам

Университет Ватан

Ташкент, Узбекистан

ORCID - 0009-0004-7341-0876

juraev.1982@mail.ru

Аннотация

В данной статье проводится научно-теоретический анализ роли тариката Накшбандия в обеспечении религиозной толерантности и межнационального согласия. Рассматриваются основные принципы учения Накшбандия, основанные на гуманизме, справедливости, милосердии, взаимном уважении и социальном сотрудничестве. На основе взглядов Баха-ид-Дин Накшбанд и представителей тариката раскрываются идеи, способствующие укреплению мира и согласия между представителями различных религий и национальностей. В исследовании также научно обосновывается значение исторического опыта тариката Накшбандия и его роль в обеспечении социальной стабильности в современных многонациональных и многоконфессиональных обществах.

Ключевые слова: Накшбандия, суфизм, религиозная толерантность, межнациональное согласие, Бахауддин Накшбанд, духовность, гуманизм, сплочённость.

Bugungi globallashuv sharoitida diniy bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlik masalalari jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Turli millat, din va madaniyat vakillarining tinch-totuv yashashi jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. O'zbekiston hududida shakllangan tasavvuf maktablari, xususan Naqshbandiya tariqati insonparvarlik, bag'rikenglik va hamjihatlik g'oyalarini targ'ib etganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Naqshbandiya tariqati XIV asrda Baha-ud-Din Naqshband tomonidan shakllantirilgan bo'lib, keyinchalik Markaziy Osiyo, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston va boshqa hududlarga keng tarqaldi. Ushbu tariqat insonning ma'naviy kamolotini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratgan.

Naqshbandiya tariqati islom tasavvufining eng yirik va ta'sir doirasi keng tariqatlaridan biri bo'lib, uning g'oyaviy asosi insonparvarlik, bag'rikenglik, ma'naviy poklanishdan iborat va jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash tamoyillari muhim o'rin egallaydi. Mazkur masala bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Naqshbandiya ta'limoti diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy omillardan biri sifatida baholanadi [1; 305]. Naqshbandiya tariqatining nazariy asoslari haqida so'z yuritganda, avvalo, Bahouddin Naqshbandning "Dil ba yor, dast ba kor" ("Ko'ngil Allohda, qo'l mehnatda") tamoyili alohida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilar ushbu prinsipni insonning jamiyatdan uzilmagan holda ma'naviy kamolotga erishishi, turli ijtimoiy va madaniy guruhlar bilan hamkorlikda yashashi g'oyasining ifodasi sifatida talqin qiladilar. Xususan, A.Knysh [2; 187], J.Trimingham [3; 205] va H.Algar [4; 23] kabi olimlar Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy faollikka asoslanganligi uni boshqa tasavvufiy yo'nalishlardan ajratib turishini ta'kidlaydilar.

Tasavvuf va bag‘rikenglik munosabatlarini o‘rgangan tadqiqotchilar, jumladan, A.Schimmel [1; 307] o‘z asarlarida tasavvufning markazida muhabbat, mehr-shafqat va inson qadr-qimmatini ulug‘lash g‘oyalari yotishini qayd etadi. Muallifning fikricha, tasavvufiy tafakkur insonlarni diniy, etnik va madaniy tafovutlardan qat’i nazar, umumiy axloqiy qadriyatlar asosida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu jihat Naqshbandiya tariqatida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Markaziy Osiyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Naqshbandiya tariqatining mintaqada turli millat va konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlikni ta’minlashdagi tarixiy roli yoritilgan. Tasavvufning ma’naviy-axloqiy asoslari va bag‘rikenglik g‘oyalari [5; 179], komil inson tarbiyasi va insonparvarlik tamoyillari [6; 113] N.Komilov asarlarida bayon etilgan. H.Karomatovlarning ilmiy izlanishlarida Naqshbandiya shayxlari faoliyati orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, diniy murosasozlik va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat muhitini shakllantirish masalalari tahlil qilingan [7; 86]. Ularning fikricha, tariqat vakillari insonlarni millati, irqi yoki ijtimoiy mavqeiga qarab emas, balki ma’naviy fazilatlari asosida baholash zarurligini targ‘ib etganlar.

Jafar Xolmo‘minov XX asrning o‘rta davrida faoliyat yuritgan o‘zbek tasavvufshunosi va manbashunos yirik olimlardan hisoblanadi. J.Xolmo‘minov tadqiqotlarida tasavvufning ontologiyasi, ijtimoiy uyg‘unlik va ma’naviy tarbiyadagi rolini ochib beradi.

Naqshbandiya tariqatining bag‘rikenglik konsepsiyasini o‘rganishda Alisher Navoiy [11; 25], Abdurahmon Jomiy [12; 366], Bahouddin Naqshband [13; 16], Xoja Ahror Valiy [14; 6] kabi mutafakkirlarning asarlari ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu manbalarda tasavvuf ahlining ma’naviy merosi va insoniy fazilatlari, Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyalari va axloqiy tamoyillari, insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, adolat, hamkorlik va o‘zaro hurmat g‘oyalari ilgari surilib, ular jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashning asosiy omili sifatida talqin etiladi.

Naqshbandiya tariqatining asosiy maqsadi – inson qalbini ma’naviy poklash va uni komillikka yetkazishdan iborat. Ta’kidlaganimizdek, tariqatning mashhur

shiori: «Dil ba yor, dast ba kor» («Ko'ngil Allohda, qo'l mehnatda») insonning nafaqat ruhiy kamolotga, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etishga ham chorlaydi. Naqshbandiya ta'limotida insonning diniy mansubligi yoki etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, uning qadr-qimmatini ulug'lanadi. Bu tamoyil diniy bag'rikenglik va millatlararo hamjihatlikning muhim nazariy asoslaridan biridir.

Naqshbandiya ta'limotida bag'rikenglik g'oyasi tasavvuf ta'limotining asosiy maqsadlaridan biri inson qalbini nafs illatlaridan poklashdir. Naqshbandiya namoyandalari insonlarga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishni komillik belgisi sifatida baholaganlar. Bahouddin Naqshband: «Yaxshilikni barcha uchun istash va odamlarga xizmat qilish eng ulug' fazilatdir» [15; 34], - degan g'oyani ilgari surgan. Naqshbandiya manbalarida insonlarni diniga, millatiga yoki ijtimoiy mavqeiga qarab ajratish qoralanadi. Barcha insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish tariqatining muhim axloqiy mezonini sifatida qoraladi.

Naqshbandiya tariqati Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida o'zaro hurmat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. Tariqat vakillari turli etnik guruhlar yashaydigan hududlarda faoliyat yuritib, ijtimoiy birdamlikni ta'minlashga intilganlar. Xususan, Xo'ja Axror Valiy faoliyatida ijtimoiy adolat, inson manfaatlarini himoya qilish va xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik masalalari markaziy o'rin egallagan. Uning siyosiy va ma'naviy faoliyati jamiyatdagi ziddiyatlarni yumshatish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Naqshbandiya va dinlararo muloqot masalasida Naqshbandiya tariqati tarix davomida turli diniy jamoalar bilan tinch munosabatlarni qo'llab-quvvatlagan. Tariqat vakillari Islomning adolat va rahm-shafqat tamoyillariga tayangan holda boshqa din vakillariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni targ'ib etganlar. Bu jihat, ayniqsa, Hindiston hududida Naqshbandiya tariqatining tarqalishi davrida yaqqol namoyon bo'lgan. Turli din vakillari bilan muloqot va hamkorlik orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishga intilish tariqat faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Naqshbandiya tariqati Markaziy Osiyoda shakllangan va islom tasavvufi tarixida muhim o'rin egallagan yirik tariqatlardan biridir. Ushbu tariqatning asosiy maqsadi insonning ma'naviy kamolotga erishishi,

qalbni poklash va jamiyatda ezgulik hamda hamjihatlikni qaror toptirishdan iboratdir. Naqshbandiya ta'limotida diniy bag'rikenglik masalasi inson qadr-qimmatini ulug'lash, boshqa insonlarga mehr-muhabbat va hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyalari orqali namoyon bo'ladi.

Bahouddin Naqshband ta'limotida insonlarga xizmat qilish, ularning manfaatini ko'zlash va jamiyatda tinchlikni saqlash muhim axloqiy mezon sifatida talqin etiladi. Naqshbandiya manbalarida "xilvat dar anjuman" tamoyili ilgari surilib, insonning jamiyatdan ajralmagan holda ma'naviy kamolotga erishishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa turli diniy va etnik guruhlar bilan o'zaro hurmat va hamkorlik asosida yashashni nazarda tutadi.

Naqshbandiya tariqati tasavvuf tarixida insonparvarlik, bag'rikenglik va ijtimoiy hamjihatlik g'oyalarini targ'ib qilgan yirik ma'naviy maktablardan biri hisoblanadi. Ushbu tariqat ta'limotida insonning millati, tili yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, uning qadr-qimmatini va ma'naviy kamoloti ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bois Naqshbandiya ta'limoti millatlararo totuvlik va o'zaro hurmatni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim axloqiy-falsafiy tamoyillarni o'zida mujassam etgan. Naqshbandiya tariqati vakillari insonlarni kelib chiqishi yoki millatiga qarab emas, balki ularning axloqiy fazilatlarini va ma'naviy kamoloti asosida baholaganlar. Tasavvufning komil inson haqidagi qarashlari barcha insonlarning tengligi va o'zaro hurmatiga asoslanadi. Shu jihatdan Naqshbandiya ta'limoti Markaziy Osiyoda ko'p millatli jamiyatlarning shakllanishi va ular o'rtasidagi tinch-totuv munosabatlarning rivojlanishiga ma'naviy zamin yaratgan. Zamonaviy sharoitda ham Naqshbandiya tariqatining insonparvarlik, hamjihatlik va bag'rikenglikka asoslangan g'oyalari millatlararo totuvlikni mustahkamlash, turli madaniyat va an'analarga hurmat ruhini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Naqshbandiya merosi diniy ekstremizm, radikalizm va murosasizlikka qarshi ma'naviy vosita sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Tariqatning bag'rikenglik, insonparvarlik, o'zaro hurmat, mehnatsevarlik, adolat, ijtimoiy mas'uliyat kabi tamoyillari zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan millatlararo

totuvlik va diniy bagʻrikenglik siyosati ham tasavvufiy merosning ushbu gʻoyalari bilan uygʻunlashadi. Naqshbandiya tariqati diniy bagʻrikenglik va millatlararo hamjihatlik gʻoyalarni oʻzida mujassam etgan muhim maʼnaviy taʼlimot hisoblanadi. Tariqatning insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat va oʻzaro hurmatga asoslangan tamoyillari turli millat va din vakillarining tinch-totuv yashashiga xizmat qiladi. Bahouddin Naqshband va uning izdoshlari merosi bugungi kunda ham jamiyat barqarorligi, fuqarolik birdamligi va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam – AQSH, 1975. - Pp. 305–340.
2. Knysh A. Islamic Mysticism: A Short History – Niderlandiya, 2010. - Pp. 186–205.
3. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam – Buyuk Britaniya, 1971. - Pp. 203–221.
4. Algar H. The Naqshbandi Order: A Preliminary Survey of Its History and Significance – Buyuk Britaniya, 1990. - Pp. 5–25.
5. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, 2009.
6. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Тошкент, 1996.
7. Бобожонов Б. Нақшбандия ва унинг Марказий Осиё тарихидаги ўрни. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004.
8. Холмўминов Ж. Жомий ва ваҳдат ул-вужуд таълимоти: монография. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 232 б.
9. Холмўминов Ж. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва Нақшбандия таълимоти (Ибн-ал-Арабий, Хожа Муҳаммад Порсо, Хожа Аҳрор Валий ва Мавлоно Абдурахмон Жомий қарашлари асосида): монография. – Тошкент: Tafakkur, 2020. – 324 б.
10. Холмуминов Дж. Философия и суфизм. Противоречие и взаимосвязи. Книга I. Монография. – Ташкент: Ilm-maʼrifat, 2025. – 240 с
11. Навоий, Алишер. Насойим ул-муҳаббат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

12. Jomiy A. Nafahot ul-uns - Eron, 2001, 365–412-bb.
13. Нақшбанд, Баҳоуддин. Рисолаи Қуддисия. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003.
14. Хожа Аҳрор Валий. Рисолаи Волидия. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004.
15. Нақшбанд, Баҳоуддин. Мақомоти Хожа Нақшбанд. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003.